QASHQADARYO-SURXONDARYO IJROCHILIK MAKTABINING O‘ZIGA XOSLIGI VA ILMIY TIZIMLASHTIRILGANLIK MUAMMOSI

Jabborov Alisher – *mustaqil izlanuvchi*
alisherjabborov05@gmail.com
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

СВОЕОБРАЗИЕ КАШКАДАРЬИНСКО-СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЙ ШКОЛЫ И ПРОБЛЕМА ЕЁ НАУЧНОЙ СИСТЕМАТИЗАЦИИ

Жобборов Алишер – *независимый исследователь*
Государственный институт искусств и культуры Узбекистана

THE DISTINCTIVENESS OF THE KASHKADARYA-SURKHANDARYA PERFORMING SCHOOL AND THE PROBLEM OF ITS SCHOLARLY SYSTEMATISATION

Jabborov Alisher – *Independent Researcher*
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Tayanch so‘zlar: Qashqadaryo-Surxondaryo maktabi, janubiy viloyatlar, Boysun madaniy makoni, ichki ovoz, dostonchilik, baxshichilik, mumtoz xonandalik, nomoddiy madaniy meros, lokal uslub, ilmiy tizimlashtirish.

Rezyume. Maqolada O‘zbekistonning janubiy viloyatlari Surxondaryo va Qashqadaryo hududida shakllan gan Qashqadaryo-Surxondaryo ijrochilik maktabining o‘ziga xos xususiyatlari madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Mintaqaning tarixiy-geografik o‘rni, Boysun madaniy makonining arxaik qatlamlari, “ichki ovoz” ijro texnikasi hamda mumtoz xonandalikning dostonchilik-baxshichilik bilan qorishuvi tahlil qilinadi. Maqolada mazkur maktabning boshqa uch mintaqaviy maktabga nisbatan ilmiy tizimlashtirilganlik darajasidagi tengsizlik muammosi ilmiy muomalaga kiritiladi. Janubiy viloyatlardan yetishib chiqqan ijrochilarning ijodiy yo‘li qiyosiy tahlil qilinib, mintaqada mumtoz xonandalik an’anasining uzatilishida barqaror uch bosqichli tizim amal qilishi asoslab beriladi. Xulosada merosni saqlash va rivojlantirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Ключевые слова: кашкадарьинско-сурхандарьинская школа, южные области, культурное пространство Байсуна, «ички овоз», дастанное искусство, бахшийская традиция, классическое пение, нематериальное культурное наследие, локальный стиль, научная систематизация.

Резюме. В статье с культурологических позиций исследуются особенности кашкадарьинско-сурхандарьинской исполнительской школы, сформировавшейся в южных областях Узбекистана. Анализируются историко-географическое положение региона, архаические пласты культурного пространства Байсуна, техника исполнения «ички овоз», а также взаимопроникновение классического пения и дастанно-бахшийской традиции. В научный оборот вводится проблема неравенства степени научной систематизации данной школы по сравнению с тремя другими региональными школами. На основе сравнительного анализа творческого пути исполнителей, вышедших из южных областей, обосновывается действие устойчивой трёхступенчатой системы передачи традиции классического пения. В заключении представлены научно-практические рекомендации по сохранению и развитию наследия.

Keywords: Kashkadarya-Surkhandarya school, southern regions, Boysun cultural space, ichki ovoz, epic art, bakhshi tradition, classical singing, intangible cultural heritage, local style, scholarly systematisation.

Summary. The article examines, from a culturological perspective, the distinctive features of the Kashkadarya-Surkhandarya performing school formed in the southern regions of Uzbekistan. It analyses the historical and geographical position of the region, the archaic layers of the Boysun cultural space, the ichki ovoz vocal technique, and the interpenetration of classical singing with the epic bakhshi tradition. The article introduces into scholarly discussion the problem of inequality in the degree of scholarly systematisation of this school compared with the other three regional schools. Through a comparative analysis of the creative paths of performers who emerged from the southern regions, the article substantiates the existence of a stable three-stage system of transmitting the classical singing tradition.

ASOSIY QISM

O‘zbekistonning janubiy viloyatlari Surxondaryo va Qashqadaryo hududlari mumtoz musiqa merosining tarixiy taraqqiyotida o‘ziga xos, betakror o‘rin tutadi. Tarixiy-geografik jihatdan ushbu mintaqa qadimgi Baqtriya va

Toxariston sivilizatsiyalari hududida joylashgan bo‘lib, u nafaqat Movarounnahrning boshqa hududlari, balki Xuroson va Hindiston tomon yo‘nalgan qadimiy savdo-madaniy yo‘llar kesishmasida turgan. Bunday geografik joylashuv mintaqa musiqa madaniyatining boshqa hududlarnikidan farqli badiiy-uslubiy xususiyatlar kasb etishiga zamin yaratgan.

Mintaqaning mumtoz musiqa tarixidagi ishtiroki o‘rta asr manbalarida ham o‘z aksini topgan. A.Fitratning ko‘rsatishicha, Husayn Boyqaro davrida yetishib chiqqan yirik san’atkorlar orasida shahrisabzlik Abulbaraka o‘z zamonasining atoqli bastakorlaridan sanalgan; XV asr musiqa ilmi rivojida esa Kesh (Shahrisabz) Samarqand, Buxoro va Hirot bilan bir qatorda madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan. Shuningdek, Fitrat XIX asr xalq kuylari repertuarida “Abdurahmonbegi” kuyi 1895-yillarda vafot etgan shahrisabzlik Abdurahmonbek tomonidan, “Junaydiyxon” kuyi esa 1875-yillarda vafot etgan shahrisabzlik Junaydiy tomonidan bog‘langanini qayd etadi.

O‘rta asr Sharq musiqa madaniyatining yirik namoyandalaridan biri, “qavvali” musiqiy janrining asoschisi hamda “table” va “setor” cholg‘ularining ixtirochisi sanalgan Amir Xusrav Dehlaviyning (1253–1325) otasi Amir Sayfuddin Mahmud O‘rta Osiyoning Kesh qabilasidan kelib chiqqan bo‘lib, bu holat mintaqamiz va Hindiston yarim oroli musiqa madaniyatlari o‘rtasidagi tarixiy-genetik aloqalarning naqadar qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

Mintaqaning madaniy o‘ziga xosligi eng yorqin tarzda Boysun madaniy makonida namoyon bo‘ladi. Boysun arxaik madaniyat unsurlari saqlanib qolgan eng o‘ziga xos etnofolklor hududlaridan biri hisoblanadi: o‘tmishda ko‘chmanchi va o‘troq turkiy hamda forsiy xalqlar madaniyatlari bu yerda o‘zaro chatishib ketgan bo‘lib, bu jarayon og‘zaki xalq she’riyati va musiqasida, marosimlarda, amaliy san’at, xalq raqslari va an’anaviy kiyimlarda o‘z ifodasini topgan. Boysun musiqiy folklorining lokal zonalari sifatida markaziy Boysun, shimoli-sharqiy Qo‘rg‘oncha, shimoli-g‘arbiy Machay va janubi-g‘arbiy Sayrob hududlari ajratiladi; ushbu zonalar muayyan tumanlarning etnik tarkibi hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari natijasida shakllangan bo‘lib, har biri janrlarning ma’lum guruhiga ixtisoslashgan.

2002-yilda O‘zbekiston hukumati, YUNESKO milliy komissiyasi va YUNESKOning Toshkentdagi vakolatxonasi birgalikdagi sa’y-harakatlari natijasida Boysun tumanining madaniy makoni dunyoning boshqa o‘n sakkizta madaniyat obyekti bilan bir qatorda YUNESKO tomonidan “Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi durdonasi” deb e’lon qilindi. 2021-yilda esa baxshichilik san’ati YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi. Ushbu xalqaro e’tirof janubiy viloyatlar musiqiy-dostonchilik merosining umumjahon miqyosidagi qadr-qimmatini tasdiqladi.

Mintaqada shakllangan baxshichilik maktabi o‘zining o‘ziga xos ovoz qo‘yish uslubi, dostonlarni talqin qilish mahorati va ijrochilik an’analari bilan o‘zbek dostonchiligi umumiy xazinasida alohida o‘rin egallaydi. “Ichki ovoz” deb nomlanuvchi o‘ziga xos ijro texnikasi ko‘krak bo‘shlig‘idan chiqariladigan, o‘ziga xos guruldoq va salobatli tembrga ega ovoz qo‘yish uslubi dostonlardagi qahramonlik, jangovarlik va sarguzasht mavzularini ifodalashda alohida ta’sirchanlik kasb etadi. Bu ijro uslubi baxshining nafaqat ovoz imkoniyatlarini, balki uning nafas texnikasi va jismoniy chidamliligini ham yuqori darajada talab qiladi.

Qashqadaryo-Surxondaryo maktabining boshqa uch maktabdan tubdan farq qiluvchi jihati shundaki, u ko‘proq epik-dostonchilik janriga, kamroq esa Shashmaqom tipidagi murakkab, ko‘p qismli maqom turkumlariga asoslangan. Bu farq mintaqaning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot xususiyatlari bilan bog‘liq: agar Buxoro, Xorazm va Qo‘qon kabi markazlarda saroy homiyligi ostida murakkab professional tizimlar rivojlangan bo‘lsa, janubiy viloyatlarda ijodiy jarayon ko‘proq xalq muhitida, chorvador-dehqon jamoalari hayoti bilan uzviy bog‘liq holda kechgan.

Fitrat mumtoz maqom an’anasi bilan bir qatorda “el kuylari” yoki “termalar” nomi bilan yuritiladigan, sanoqsiz va cheksiz kuylar qatlami mavjudligini, ular Shashmaqom bayrog‘i ostiga kirmasligini va uning usullariga bo‘ysunishni istamasligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu qatlamning musiqiy qadri shu sababdan pasaymaydi, aksincha ko‘tariladi. Fitrat el kuylarining mustaqilligini adabiyot bilan qiyoslab izohlaydi: xalq she’riyatidagi tizma qism arab aruziga bo‘ysunmay o‘z yo‘li bilan borgani kabi, el kuylari ham Shashmaqom usuliga bo‘ysunmay o‘z yo‘li bilan yurgan va yurmoqda. Shu bilan birga, mintaqada mumtoz xonandalik an’analari ham o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Tarixiy jihatdan Surxondaryo va Qashqadaryo hududlari Buxoro-Samarqand mumtoz xonandalik maktabi ta’sir doirasida bo‘lgan bo‘lsa-da, mintaqaning o‘ziga xos etnik-madaniy tarkibi natijasida bu yerda mumtoz ashula ijrochiligining alohida mahalliy ottenkalari shakllangan. Qashqadaryo-

Surxondaryo maktabi va Buxoro-Samarqand maktabi o‘rtasidagi tarixiy aloqalarni yorituvchi qimmatli faktik dalillar mavjud: xususan, XVIII asrda Buxoroda yashab o‘tgan nomdor hofiz Navro‘zali Tanburiy ixtiro qilgan murakkab “Avji turk” nomli avj Buxoro, G‘ijduvon, Vobkent bilan bir qatorda aynan Shahrisabz hofizlari orasida ham keng tarqalgan va mashhur bo‘lgan.

Mintaqada mumtoz xonandalik va ashula ijrochiligi an’analari bugungi kunga qadar bolalar musiqa va san’at maktablari, san’at kollejlari hamda madaniyat muassasalari faoliyati orqali saqlanib, avlodlarga izchil yetkazilib kelinmoqda. Mintaqadagi ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi tajribali ustozlar o‘z shogirdlariga nafaqat texnik-ijrochilik mahoratini, balki mumtoz musiqaning ma’naviy-falsafiy mazmunini ham o‘rgatib kelmoqdalar; bu esa ustoz-shogird an’anasining mintaqada hanuzgacha tirik va faol ekanligidan dalolat beradi.

Janubiy viloyatlardan yetishib chiqqan ijrochilarning ijodiy yo‘li mintaqa merosining zamonaviy holatini tushunishda alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Qashqadaryoning Chiroqchi tumanidan bo‘lgan onasi oilasida shakllangan musiqiy muhit, so‘ngra Shahrisabz teatri rejissyori qo‘lida olingan dastlabki kasbiy saboqlar, Qashqadaryo uslubidagi “Samarqand ushshog‘i”, “Guluzorim”, “Eshvoy” kabi asarlarning o‘zlashtirilishi ijrochining mahalliy an’ana zaminida shakllanganini ko‘rsatadi. Keyinchalik Toshkent davlat konservatoriyasida yetakchi ustozlar rahnamoligida Buxoro Shashmaqomi an’anasi va katta ashula ijrochiligining o‘zlashtirilishi mintaqaviy an’ananing umummilliy kasbiy maktabga qo‘shilish jarayonini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Janubiy viloyatlar madaniy merosiga bevosita bag‘ishlangan tadqiqotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni mintaqa etnomadaniy merosini yaxlit o‘rganishga qaratilgan ishlar tashkil etadi. O.Bo‘riyev va A.Ochilovning “Qashqadaryo vohasi etnomadaniy qadriyatlari” monografiyasi mintaqa madaniy merosini maxsus o‘rganishga qaratilgan yirik tadqiqot hisoblanadi. S.Tursunov va hammualliflarining Termizda nashr etilgan ishlari Surxondaryo an’analarini yoritadi. I.Jabborov, A.Ashirov va M.Sattorning tadqiqotlarida etnomadaniyat va marosim madaniyati masalalari o‘rganilgan.

Ikkinchi guruhni mintaqaning musiqiy folkloriga bag‘ishlangan ishlar tashkil etadi. R.Abdullayevning Boysun madaniy makoniga oid ingliz tilidagi tadqiqoti mintaqaning musiqiy folklorini xalqaro ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lib, unda Boysun musiqiy folklorining lokal zonalari va janr tizimi tavsiflangan. Uning “An’anaviy o‘zbek musiqasi asoslari” darsligida esa Qashqadaryo-Surxondaryo maktabi to‘rtinchi mustaqil lokal-uslubiy yo‘nalish sifatida ilmiy jihatdan qayd etilgan.

Uchinchi guruh dostonchilik va baxshichilik an’anasini tadqiq etuvchi ishlardan iborat. M.Karimovning “O‘zbek dostonchiligi maktablari”, J.Eshonqul va A.Musaqulovning folklorshunoslikka oid tadqiqotlarida Sherobod dostonchilik maktabi an’analari, baxshining ijtimoiy maqomi va doston ijrosining poetikasi tahlil qilingan. A.Fitratning risolasi esa “el kuylari” qatlamining mustaqilligi masalasini ilk bor nazariy jihatdan asoslab bergan manba sifatida alohida ahamiyatga ega.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mintaqaga oid ishlar asosan dostonchilik-baxshichilik yo‘nalishini qamrab olgan. Qashqadaryo-Surxondaryo maktabining mumtoz xonandalik qatlami esa maxsus tadqiqot predmetiga aylantirilmagan. Boshqa uch maktab bo‘yicha ko‘plab monografiya va dissertatsiyalar yaratilgan, ularning maqom turkumlari notaga olinib, o‘quv dasturlariga kiritilgan bo‘lsa, janubiy viloyatlar mumtoz xonandalik merosi bu jihatdan ortda qolgan. Aynan shu ilmiy bo‘shliq mazkur maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

NATIJA VA MULOHAZA

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy natijalar qo‘lga kiritildi.

Birinchidan, Qashqadaryo-Surxondaryo maktabining o‘ziga xosligi uch asosiy belgida namoyon bo‘ladi: “ichki ovoz” ijro texnikasida, Sherobod dostonchilik maktabi an’analarida hamda mumtoz xonandalikning dostonchilik-baxshichilik bilan uzviy qorishuvida. Ushbu uchlik boshqa hech bir mintaqaviy maktabda shu ko‘rinishda uchramaydi va mazkur maktabni tipologik jihatdan alohida hodisa sifatida ajratib turadi.

Ikkinchidan, mintaqada mustahkam ijtimoiy tuzilma bilan boy musiqiy-dostonchilik merosi o‘rtasida ikki tomonlama bog‘liqlik mavjud: bir tomondan, mustahkam mahalla va urug‘-qabila institutlari musiqiy merosning saqlanishiga yordam bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aynan shu musiqiy meros o‘z navbatida ijtimoiy tuzilmalarni mustahkamlab turgan. Ushbu o‘zaro bog‘liqlik mintaqada o‘ziga xos o‘zini-o‘zi saqlovchi madaniy tizim shakllanganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, janubiy viloyatlardan yetishib chiqqan ijrochilarning ijodiy yo‘lini qiyosiy tahlil

qilish mintaqada mumtoz xonandalik an’anasining uzatilishida barqaror uch bosqichli tizim amal qilishini ko‘rsatdi: oilaviy-mahalliy muhitda dastlabki musiqiy tarbiya mintaqaviy ijro uslubining o‘zlashtirilishi poytaxtdagi yetakchi ustozlar qo‘lida kasbiy maktabga qo‘shilish. Bu model mintaqaviy an’ana bilan umummilliy kasbiy maktab o‘rtasidagi aloqa kanalini aniq ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, tadqiqot mintaqaviy ijrochilik maktablari o‘rtasidagi ilmiy tizimlashtirilganlik darajasida sezilarli tengsizlik mavjudligini aniqladi. Buxoro-Samarqand, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent maktablarining maqom turkumlari notaga olinib, maxsus o‘quv dasturlariga kiritilgan bo‘lsa, janubiy viloyatlarning mumtoz xonandalik merosi bu jihatdan ortda qolgan. Bunday tengsizlik, agar bartaraf etilmasa, uzoq muddatli istiqbolda mazkur maktabning ustuvorlik darajasi pasayishiga va yosh avlod e’tiboridan chetda qolishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, mintaqada baxshi yoki xonandaning ijtimoiy mavqei alohida ahamiyat kasb etadi: u nafaqat san’atkor, balki ko‘pincha jamoaning ma’naviy-axloqiy yo‘l-yo‘riqchisi, hikmatli maslahatchi vazifasini ham bajaradi. Bu holat baxshi yoki xonandani o‘ziga xos “madaniy vositachi” maqomiga ko‘taradi. Ayrim hollarda ularga norasmiy murosaga keltiruvchi (mediator) vazifasi ham yuklanadi: mahalliy nizolar yuzaga kelganda jamoat tomonidan hurmat qilinadigan san’atkorning ishtiroki tomonlarni yarashtirishda ta’sirchan omil bo‘lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, zamonaviy urbanizatsiya jarayonlarining mintaqaviy madaniy tizimga ta’siri ikki qirrali baholanishi lozim. Qishloqdan shaharga migratsiya an’anaviy mahalla va urug‘-qabila aloqalarining zaiflashishiga olib kelishi mumkin; biroq shahar sharoitida ham merosni saqlashning yangi shakllari mintaqaviy jamoat birlashmalari, “qishloqdoshlar” uyushmalari, ijtimoiy tarmoqlardagi mahalliy musiqa muxlislari guruhlari yuzaga kelmoqda. Bu jarayon an’ananing yo‘qolishi emas, balki uning yangi ijtimoiy shaklga o‘tishi sifatida talqin etilishi mumkin.

Yettinchidan, mintaqa mumtoz musiqa merosining ijtimoiy-madaniy funksiyalarini empirik o‘rganish uchun o‘ziga xos “tabiiy laboratoriya” vazifasini bajaradi. Bu yerda an’anaviy institutlar nisbatan mustahkam saqlanib qolgani bois musiqaning kommunikativ, integrativ, identifikatsion va translyatsion vazifalari o‘zining eng tabiiy ko‘rinishida kuzatilishi mumkin. Diqqatga sazovor jihati shundaki, mintaqada identifikatsion funksiya ikki qatlamli tarzda namoyon bo‘ladi: umummilliy “o‘zbeklik” identifikatsiyasi va mintaqaviy, “surxondaryolik” yoki “qashqadaryolik” identifikatsiyasi. Bu ikki qatlam bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tarzda amal qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Qashqadaryo-Surxondaryo ijrochilik maktabi o‘zbek mumtoz musiqasining to‘rtinchi mustaqil lokal-uslubiy yo‘nalishi bo‘lib, u boshqa maktablar bilan “variant-invariant” munosabatida emas, balki nisbatan mustaqil, dostonchilik janriga tayangan yo‘nalish sifatida rivojlangan.

Mintaqa merosining o‘ziga xosligi “ichki ovoz” texnikasi, Boysun madaniy makonining arxaik qatlamlari hamda mumtoz xonandalik bilan baxshichilikning qorishuvida namoyon bo‘ladi; bu jihatlar uni tipologik jihatdan alohida hodisa sifatida ajratib turadi. Mintaqada mumtoz xonandalik an’anasining uzatilishi barqaror uch bosqichli model oilaviy-mahalliy tarbiya, mintaqaviy uslubning o‘zlashtirilishi va poytaxt kasbiy maktabiga qo‘shilish orqali amalga oshadi.

Maktabning ilmiy tizimlashtirilganlik darajasidagi tengsizlik bugungi kunning dolzarb ilmiy muammosi hisoblanadi; uni bartaraf etish uchun mintaqa mumtoz xonandalik repertuarini notaga olish, ilmiy tavsiflash, audio-video arxivlashtirish va o‘quv dasturlariga kiritish bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mintaqa madaniy merosini saqlash borasidagi chora-tadbirlar ijrochilar-an’ana tashuvchilarni maqsadli qo‘llab-quvvatlash, mahalliy ta’lim muassasalarida mintaqaviy repertuarga alohida o‘rin ajratish hamda merosni zamonaviy raqamli formatlarda targ‘ib etish yo‘nalishlarini kompleks qamrab olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. PQ-405-son, 2023-yil 25-dekabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. 2018-yil // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

3. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: O‘zR FA «Fan» nashriyoti, 1993. – 112 b.

4. Abdullaev R. The Traditional Musical Culture of Boysun. – Tashkent: UNESCO Office in Tashkent, 2006. – 64 p.

5. Abdullayev R. An’anaviy o‘zbek musiqasi asoslari: konservatoriya talabalari uchun darslik. – Toshkent: «Musiqa» nashriyoti, 2022. – 360 b.

6. Karimov M. O‘zbek dostonchiligi maktablari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 208 b.

7. Бўриев О., Очилов А. Қашқадарё воҳаси этномаданий қадриятлари: монография. – Тошкент: Янги нашр, 2013. – 364 б.

8. Турсунов С., Пардаев Т., Бегимқулов О. Ўзбек миллий кураши тарихи ва анъаналари: монография. – Термиз: Сурхон-Нашр, 2015. – 204 б.

9. Жабборов И. Ўзбеклар турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – 208 б.

10. To‘rayev F. Buxoro Shashmaqomi tarixidan. – Toshkent: «Musiqa» nashriyoti, 2011. – 128 b.

11. Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1963. – 268 b.

12. Ibrohimov O. Maqomlar tarixi va nazariyasi: darslik. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 164 b.

13. Begmatov S. Hofizlik san’ati: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Musiqa, 2007. – 96 b.

14. Nasullaev Z. Amir Xusrav Dehlaviy asarlarida musiqa haqida ma’lumotlar: ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: ALGO BOSS, 2010. – 64 b.

15. Mavrulov A. O‘zbekiston madaniyati tarixi. – Toshkent: Shafoat nur fayz, 2025. – 512 b.

16. Jumayeva G. Nasibaxonim Sattorova: Sharq bulbuli. – Toshkent: «Javohir-ilm-nashr», 2026. – 80 b.

17. Флиер А.Я. Культурология для культурологов: учебное пособие. – Москва: Согласие, 2010. – 672 с.

18. Ерасов Б.С. Социальная культурология. – Москва: Аспект Пресс, 1996. – 591 с.